

IJTIMOY FAROVONLIKNI TA’MINLASHDA KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHNING DETERMINISTIK TAHLILI

Meliboev Azizjon Nizomiddinovich

Qo‘qon davlat universiteti

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: aziznizomiddinovich@gmail.com

UO‘K101.1:316.323(575:1) O‘MKutubxona

<https://orcid.org/orcid/0009-0000-4632-2476>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985534>

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilishi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish imkonini berayotgani, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ijtimoiy siyosatni olib borish va ijtimoiy sohani rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirishda aholini ijtimoiy himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va inson kapitalidan unumli foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari mazkur muammoning mahalliy, milliy va hududiy jihatlariga alohida e‘tibor qaratishning o‘ta dolzarbligi uni davlatimizning ustuvor siyosat darajasiga ko‘tarilgani bilan izohlanadi. Yangi O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan faol ijtimoiy himoya tizimini yaratishning falsafiy jihatlari, kambag‘allikni qisqartirishda faol tadbirkorlik muhiti yaratish va ishbilarmonlik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati hamda Yangi O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda inson kapitalidan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy islohot, ijtimoiy farovonlik, deterministik, kambag‘allik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, strategiya, inson kapitali va erkinlik.

Аннотация: В статье показано, что последовательная реализация социальных реформ в Новом Узбекистане позволяет сформировать социально ориентированную рыночную экономику, специфические особенности проведения четко целенаправленной социальной политики и развития социальной сферы, социальной защиты населения в контексте сокращения бедности, развития предпринимательства и эффективного использования человеческого капитала, актуальность уделения особого внимания местным, национальным и региональным аспектам этой проблемы, что подняло ее на уровень приоритетной политики нашего государства. Анализируются философские аспекты создания активной системы социальной защиты, направленной на сокращение бедности в Новом Узбекистане, социальная значимость создания активной предпринимательской среды и формирования делового мышления в контексте сокращения бедности, а также возможности эффективного использования человеческого капитала в сокращении бедности в Новом Узбекистане.

Ключевые понятия: социальная реформа, социальное обеспечение, детерминизм, бедность, предпринимательство, бизнес, стратегия, человеческий капитал и свобода.

Abstract: The article shows that the consistent implementation of social reforms in New Uzbekistan allows for the formation of a socially oriented market economy, the specific features of conducting a clearly targeted, targeted social policy and developing the social sphere, social protection of the population in reducing poverty, the development of entrepreneurship and the effective use of human capital, the urgency of paying special attention to the local, national and regional aspects of this problem, which has elevated it to the level of priority policy of our state, are explained by the fact that it has been elevated to the level of priority policy of our state. The philosophical aspects of creating an active social protection system aimed at reducing poverty in New Uzbekistan, the social significance of creating an active entrepreneurial environment and forming a business mindset in reducing poverty, and the possibilities of effective use of human capital in reducing poverty in New Uzbekistan are analyzed.

Key concepts: social reform, social welfare, deterministic, poverty, entrepreneurship, business, strategy, human capital and freedom.

Kirish

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Zero, aholini ijtimoiy himoyalash va ularni qo‘llab quvvatlash kambag‘allikni qisqartirishdagi eng muhim vazifalardan biridir. Ijtimoiy himoya tizimi hozirgi iqtisodiy islohotlar

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

davrida jamiyatning hal etilishi zarur bulgan ijtimoiy muammolarini o‘zida mujassamlashtirgan holda amalga oshirilmoqda. “Ijtimoiy himoya” tushunchasining genezisini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu tushuncha XIXasrning ikkinchi yarmidan boshlab muomalaga kirib kelgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston xalqi ming yilliklar davomida ijtimoiy soha borasida ma’lum tajriba to‘plagan. Zamonaviy falsafiy tadqiqotlar ijtimoiy munosabatlarda tenglik erishish, kambag‘allikni qichsartirish uchun birinchidan, jamiyat a’zolarini ijtimoiy faollashtirish orqali umumjamiyat darajasida ularni himoya qilish samaradorligini ta’minlashga, ikkinchidan, mamlakatimizning jadal taraqqiyoti yo‘lida insonlarning katta ma’naviy, intellektual, iqtisodiy va siyosiy potentsiali imkoniyatlaridan foydalanish shart-sharoitlarini yaratadi. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish uzluksiz ustuvor yo‘nalishlardan biriga, ya’ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Yurtimizda xalq davlatga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerakligiga asoslangan, mohiyat e’tiboriga ko‘ra mutlaqo yangi ijtimoiy siyosat olib borilmoqda. Falsafiy tadqiqotlarda “ijtimoiy himoyalash” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ushbu talqinlarda olimlarning “ijtimoiy himoya” tushunchasini turli diskursiv pozitsiyalarda turib yondashganliklariga, ayrim hollarda subyektiv talqinlar ustuvorlik qilganligiga amin bo‘lamiz. Ijtimoiy himoyaning asosiy vazifasi ijtimoiy qiyin ahvolda qolgan, kambag‘allikdan aziyat chekayotgan aholi qatlamlariga manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish va pirovard natijada bunday toifadagi shaxslarni o‘zini o‘zi mustaqil boshqara olish, o‘zini o‘zi ta’minlay olish va rivojlantirish bosqichiga yuksaltirishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology): O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti asarlari [1;] dagi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari [2;454 b.] dagi kambag‘allik va qashshoqlikni qisqartirish borasidagi konseptual g‘oya va fikrlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zbekistonda kambag‘allik va qashshoqlikning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari, ijtimoiy ta’siri, unga qarshi kurashish vazifalarini olimlardan A.V.Vaxabov, B.X.Umrzaqov, M.K.Abdullayevlar tomonidan o‘rganilgan [3; 25 b.]. Shuningdek, kambag‘allikning kelib chiqishi sabablari, kambag‘allik darajasini aniqlash mexanizmi, metodologiyasi va kambag‘allikni qisqartirishning ayrim masalalari B.Sh.Xusanov, B.K.G‘oyibnazarov, D.M.Karimova, X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov, N.M.Majidov, R.F.Djumanov [4; B. 127-139.], kambag‘al va ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya yo‘nalishlari va ularning qamrov darajasini oshirish kabi yo‘nalishlar yoriyilgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions):

“Ijtimoiy himoya” atamasi ayrim adabiyotlarda “aholini ijtimoiy himoyalash” deb talqin etilib, mamlakat aholisining yalpi ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui bo‘lib, davlat va jamiyat tomonidan aholining yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli yordamga o‘ta ehtiyojmand, asosan moddiy va tibbiy ko‘makka muhtoj fuqarolarga ko‘rsatilayotgan daavlat va jamiyat g‘amxo‘rligini nazarda tutadi. Bir vaqtning o‘zida ijtimoiy himoyalash konsepsiyasi aholini ijtimoiy himoyalashga jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha aholi qatlamlari va nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyatini faollashtirish masalasini ham ijtimoiy zarurat sifatida kun tartibiga chiqaradi.

Aholini ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotining insoniy tamoyillar negizida shakllanishi va rivojlanishiida muhim ahamiyatga egadir. “Ijtimoiy himoya” tushunchasini ayrim faylasuf olimlar jamiyatning demografik barqarorligini ta’minlash imkoni sifatida talqin qiladilar, xususan, O.V.Romashevning fikriga ko‘ra “...bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo‘jalik va ijtimoiy hayotini tashkil etishning tabiiy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tashkiliy-huquqiy shakllari esa mehnat jarayonining va ishchi kuchining takror ishlab chiqarish beto‘xtovligini ta’minlashga xizmat qiladi” [5; S. 110.]. Olimning ushbu fikrini tahlil qiladigan bo‘lsak, bunday talqin fakat mehnatga layoqatli fuqarolarni nazarda tutib, aholining mehnatga layoqatsiz qismini qamrab olmaydi. Shuning uchun ham tushunchaning mohiyatini to‘liq ochib bera olmagan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, davlatning ijtimoiy siyosati amalda asosan ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’minot. Bizning fikrimizga ko‘ra, ijtimoiy himoya ijtimoiy ko‘mak olishga ehtiyojmand aholi vakillarini moddiy va ma’naviy qo‘llash jarayonini maqsadli va manzilli tizimga solish vazifalarini barqarorlashtirishdan iboratdir. Ammo, ijtimoiy himoya tushunchasini talqin etganda uni bozor islohotlarini amalga oshirish davrida aholini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilish va milliy xo‘jalikda amal qiladigan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va, hatto, siyosiy chora-tadbirlar majmui bo‘lib, xususan, aholining yoshi, salomatligi, ijtimoiy ahvoli hamda hayot kechirishning zarur vositalarga ega bo‘lmaganligi sababli yordamga muhtoj qatlamiga davlat, jamoat tashkilotlari va jamg‘armalarning yordami hisoblanadi [6; B.260.]. Albatta bu yerda aholini ijtimoiy himoya qilishning mohiyati

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

batafsilroq ochib berishga harakat qilingan bo‘lsa-da, ushbu masalaga yanada kengroq to‘xtaladigan bo‘lsak, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni hal etish uchun tizimli ravishda maqsadli va manzilli ijtimoiy siyosat yuritilishi taqozo etiladi. Bunday siyosatning mohiyati shundan iboratki, davlat aniq ishlab chiqilgan va bozor munosabatlarini yumshatadigan, aholining u yoki bu sabablarga ko‘ra daromad ishlab topish imkoniyatiga ega bo‘lmagan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan qamrab olishga harakat qiladi. Bundan kelib chiqib, aholini ijtimoiy himoyalash jarayonida asosiy e‘tiborni uning kasb mahorati, mehnat qilish qobiliyatiga qaratish va shu asosida kambag‘allikni qisqartirish, qashshoqlar sonini kamaytirish eng dolzarb masala hisoblanadi. Xuddi shunday bizning mamlakatimizda ham, hozirgi kunda asosiy e‘tiborni mehnatga layoqatli va mehnat qilish layoqatini yo‘qotgan aholi qatlamlarini ish bilan ta‘minlash, ularning moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga qamag‘allik chegarasidagi oilalarni nafaqat moddiy qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, balki ularni kasbiy-intellektual jihatdan rivojlantirishga ham qaratish kerak. Yana bir guruh olimlarning fikricha, “ijtimoiy himoya” deganda davlat tomonidan aholining yashashi va mehnat qilishi uchun qulay sharoit yaratish, kam ta‘minlangan ijtimoiy qatlamlarga ko‘maklashish maqsadida aniq maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy kafolatlash tizimini yo‘lga qo‘yish va shu vazifalar ijrosi bilan bog‘liq jarayon tushuniladi. Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi deganda esa, mamlakatda aholi turmush sharoiti darajasini oshirishga qaratilgan mexanizm nazarda tutiladi.

Bunda aholini ijtimoiy himoya qilish ijtimoiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo‘nalishlardan biriga, ya‘ni islohotlarning hamma bosqichlaridagi muhim vazifaga aylanadi. Mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo qilish deganda davlat tomonidan tizimlashtirilgan, aniq manzillashtirilgan moddiy ko‘mak berib borish nazarda tutiladi. Olima Sh.Sodiqovanning fikricha ham, ijtimoiy himoyalash, qo‘llab-quvvatlash davlat tomonidan kamag‘allik chegarasida bo‘lgan muhtoj aholiga ajratilgan moddiy yordamdan iborat. Ijtimoiy himoyalash davlat tomonidan barcha fuqarolar hayot darajasini munosib saqlashga qaratilgan chora-tadbir bo‘lib, shu bilan bir vaqtda ijtimoiy muvozanatga erishishga yo‘naltirilgandir [7; B. 175.].

“Ijtimoiy himoya” tushunchasining bunday talqinini faqat bir tomonlama to‘g‘ri deb qabul qilish mumkin, biroq bu tushunchaning mohiyati yanada kengroq ekanligini e‘tiborga olish lozim. Chunki ijtimoiy himoya tushunchasi faqat moddiy ko‘mak bilan cheklanish emas, aks holda uning atamasini *iqtisodiy himoya* deb nomlasa ham bo‘laverar edi. Ijtimoiy himoya, eng avvalo, insonni mehr, e‘tibor, hamdardlik bilan muhofazalash tizimi degan birlamchi diskursiv talqinni ham ahamiyatli hisoblash kerak.

Bu tushunchani ijtimoiy munosabatlarning inson manfaatlarini himoyalash jarayonida yaxlitlik kasb etishidir, degan talqin doirasida izohlovchi yondashuv ham mavjud. Zero, insonni ijtimoiy himoyalash tizimi uni turli ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlardan muhofazalanishini kafolatlash majmui deb qarash ham mumkin. Aynan ana shu nuqtayi nazar aksariyat xorijiy va milliy nazariyalar mazmunida ustuvorlik kasb etmoqda. Taniqli olim, akademik K.X.Abduraxmonov ana shu nazariy yo‘nalishning hayotchanligini iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish zarurati bilan bog‘liq tarzda asoslaydi. Uning fikricha, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyalashning har safar, o‘zi amal kilib turgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimi tomonidan, jahon iqtisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanishi va hozirgi zamon talablari asosida rivojlanib borishi zarur.

Faylasuf olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, aholini ijtimoiy himoyalash jarayonining tizim yasovchi elementlari va manbalarini quyidagicha tasniflash mumkin: aholini qo‘llash va moddiy ko‘mak berish; barqaror iqtisodiy, siyosiy muhitni saqlash va jamiyatda yuz berishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy kataklizmlarning oldini olish omili deb yondashish; jamiyatda tabaqalararo muvozanatni saqlash uchun ehtiyojmand aholi uchun ijtimoiy ta‘minotni yo‘lga qo‘yish; aholining kam ta‘minlangan va kambag‘al va qashshoq vakillarining bandligini ta‘minlash; ko‘makka muhtoj aholini subvensiyalar berish orqali ijtimoiy rag‘batlantirish; kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, nogiron fuqarolar uchun ijtimoiy imtiyozlar yaratish.

Xalqaro reytinglash institutlari talablariga ko‘ra, bir mamlakatning taraqqiyot darajasi o‘z fuqarolarini ijtimoiy ta‘minoti tizimiga to‘la qamrab olishi va ijtimoiy ta‘minotning sifati bilan belgilanar ekan, bunday yondashuv mavjud muammolarni hal etishda davlatning rolini aks ettiradi. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini qonunchilik va qonun asosidagi hujjatlar orqali boshqaradi, tirikchilik qilish uchun zarur minimum darajasini belgilaydi va uni nazarda tutib, mehnatga to‘lanadigan haqning eng kam miqdorini, ijtimoiy to‘lovlarni, sug‘urta badallari va ijtimoiy yordamni, imtiyozlar turlarini

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

belgilaydi, ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ammo, davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini boshqarishdagi eng ta’sirli roli qo’shimcha ish joylarini, shu jumladan, xotin-qizlar, nogironlar uchun xam ish joylarini tashkil etish, aholiga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka darajasini oshirishdagi yordamni ko’rsatishdan iboratdir. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimi tushunchasi mazmun doirasini haddan tashqari kengaytirish ham maqbul emas.

Agar ijtimoiy himoya siyosiy tizim deb talqin etiladigan bo’lsa, uni alohida tashkillashtiruvchilari, siyosiy maqsadlari, bu holatni o’zgarishlardan saqlab turuvchi vositalari va ta’sir usullari bo’lishi talab etiladi. Shu boisdan ham, “ijtimoiy himoya – bu jamiyatdagi iqtisodiy samaradorlikni va siyosiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi alohida o’ziga xos iqtisodiy-siyosiy tizim” deb hisoblashga qo’shila olmaymiz.[8; B.9.] Bu talqin tarafdorlari ijtimoiy himoyani alohida tizim sifatida e’tirof etishlari obyektiv haqiqat bo’lsa-da, ammo ijtimoiy himoya tushunchasining kategorial mazmunini to’liq ochib bera olmaydi.

Shu o’rinda alohida ta’kidlash zarurki, har qanday davlat, garchi u rivojlangan davlatlar qarorida bo’lsa ham, odamlar ijtimoiy himoya qilish muammosini faqat davlat ko’magi orqali to’liq hal eta olmaydi. Shu boisdan ham, yangi O’zbekistonda aholini ijtimoiy qo’llash jarayoni uch mustahkam omil, ya’ni, davlat ko’magi, jamiyatning faol qo’llovi va ijtimoiy himoyaga olinuvchi shaxsning o’z potensialini rivojlantirishga tayanadi. Ilgari amal qilib kelingan ijtimoiy himoya konsepsiyasi asosan davlat ko’magi bilan cheklanar edi. Jamiyat faolligi omili esa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillarining muhtojlik holati xususida axborot berish bilan cheklanar edi. Biz tadqiqotni mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida o’tkazish jarayonida shunga amin bo’ldikki, agar jamiyatning faol amaliy qo’llovi hamda inson taraqqiyotini ta’minlash konsepsiyasi maqsadli va manzilli ishlamas bu jarayon hamisha ham pozitiv natijaga olib kelavermaydi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam ko’lamining qisqarishi va ijtimoiy himoya tizimining takomillashuvi inson taraqqiyoti konsepsiyasining shakllanishiga bevosita bog’liqdir.

Hozirgi davr nuqtayi nazaridan ushbu tushunchaning mohiyatini yoritadigan bo’lsak, ijtimoiy himoya keng ma’noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatdagaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuini anglatga, torma’noda yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmaganligi tufayli yordamga, ko’makka muhtoj bo’lgan fuqarolar to’g’risida davlat va jamiyatning g’amxo’rligidir. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligini doimiy oshirib borishni ta’minlash, aholi qatlamlari o’rtasidagi ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan yuzaga keladigan keskin tafovutlarni bartaraf etish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: a) erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko’rsatishni ta’minlash; b) ish bilan bandlik, kasb tanlash, o’qish va bilim olish; v) shaxsiy daromad topish imkoniyatlarining kafolatlanishi; g) har bir fuqaroning o’z qiziqishi va intellektual salohiyatiga tayanishi; d) ijtimoiy ta’minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta’minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Turli mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, demokratik taraqqiyot va uning aholi manfaatiga muvofiqligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta’minot tizimi kabi omillarga bog’liq holda amal qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda shaxsiy daromad olishning kafolatlanishi bo’yicha huquqiy asoslar yaratildi. Demak, ijtimoiy himoyaning immanent xususiyatlari quyidagilar: birinchidan, uning nafaqat davlat balki nodavlat institutlar tomonidan ham amalga oshirilishi; ikkinchidan, hayot kechirish va mehnat qilish uchun zarur sharoitlarni faqat vertikal tartibda emas, balki gorizontaal yo’sinda ham yaratish tizimining barpo etilishi; uchinchidan, kam ta’minlangan qatlamlarni ko’llab-kuvvatlashga qaratilgan maqsadli kafolatlarni amalga oshirish jarayonidir.

Yangi O’zbekistonda ijtimoiy islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilishi ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish imkonini beradi. Aniq maqsadga yo’naltirilgan, ijtimoiy siyosatni olib borish va ijtimoiy sohani rivojlantirish bozor islohotlari hamda iqtisodiy o’sishni ta’minlashning muhim omili bo’lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy siyosat bu davlatning aholi turmush darajasini oshirish uchun uning barcha guruhlariga bergan kafolatlari va ayrim muhtoj tabaqalarga beriladigan imtiyoz va moddiy yordamlari majmuidan iborat bo’lib, aholi farovonligini oshirish davlatning zimmasidan asta-sekin tadbirkorlar guruhlariga, nodavlat-notijorat tashkilotlari va ba’zi ko’ngilli fuqarolarga o’tishi maqsadga muvofiqdir. Davlatning ijtimoiy siyosati davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi, ijtimoiy

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

barqarorlikni saqlash, aholi turmush darajasini oshirish, hamda makroiqtisodiy siyosatning soliq va davlat harajatlari yordamida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilishidir.

Aholini ijtimoiy himoya qilish sifati, darajasi va uzluksizligi mamlakatdagi ijtimoiy siyosatning barqarorligiga bog‘liq. Ijtimoiy himoyaning obyektiga qarab uni quyidagi toifalarga ajratish mumkin: a) yoshlarni ijtimoiy himoya qilish; b) qariyalarni ijtimoiy himoya qilish; v) xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish; g) nogironligi bor fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish; d) tabiiy, tibbiy-epidemiologik, texnogen va favqulodda holatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish.

Har bir toifani ijtimoiy himoya qilish tizimining immanent xususiyatlari bo‘lib, u o‘zining xarakterli belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday ekan, yangi O‘zbekistonda tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilayotgan ijtimoiy himoya – davlat va jamiyat tomonidan insonning to‘laqonli va farovon hayot kechirishi va mehnat qilishi, kambag‘allikni qisqartirish, kam ta’minlangan qatlamlarni ko‘llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlarni yaratishda shaxs salohiyati omiliga ham samarali tayangan holda maqsadli faoliyatlarni amalga oshirish jarayonidir.

Yangi O‘zbekistonda aholisining ko‘makka ehtiyojmand qatlamlari vakillarini, xususan ayollarni ijtimoiy himoya qilishda yagona maqsad ko‘zda tutiladi, ya’ni, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy og‘ir ahvoldan chiqarish, kambag‘allikni qisqartirishdan iboratdir. Lekin, shunga qaramasdan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning strategik xususiyatlari ham mavjudki, bu omil mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida alohida dolzarblik kasb etadi.

Davlat tuzilmalarining bu jarayonga innovatsion yondashuvining o‘ziga xos obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega ekanligi quyidagilarda ko‘rinadi. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish borasida mamlakatimiz davlat tuzilmalarida olib borilayotgan chuqur islohotlar, ushbu jarayonda xotin-qizlarning o‘zlari ham ishtirok etishlariga urg‘u berilayotgani va har tomonlama rag‘batlantirilayotgani bejiz emas.

Xalq bilan muloqot qilish Yangi O‘zbekistonda butun jamiyatimizni, xususan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning butunlay yangi, innovatsion modelini yaratish imkoniyatini berdi. Bunday innovatsion yondashuv asosida esa mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning muammolarini xonadonlarga kirib individual, manzilli o‘rganilishi hamda har oila va shaxs imkoniyatlarini to‘laqonli tarzda ro‘yobga chiqarishni ijtimoiy harakatga aylantirish, inson omilini faollashtirish yotadi.

So‘nggi uch yil mobaynida amalga oshirilgan konkret ijtimoiy tadqiqot natijalari jarayonni tizimli tadqiq qilish uchun, hayotda o‘zining munosib o‘rnini topa olmagan, og‘ir ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy tanazzul holatiga tushib qolgan xotin-qizlarning muammolariga qarab toifalarini aniqlab olish zaruratini yuzaga keltirdi. Xonadonma-xonadon yurib, xotin-qizlarning muammolari manzilli o‘rganilishi “kam ta’minlangan” degan ibora mazmunini ham teranroq anglash va unday toifadagilarni quyidagicha tasniflab yondashish zarurligini kun tartibiga chiqardi: Xususan, kam ta’minlangan moddiy, psixologik, tibbiy, ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlar; kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan yolg‘iz ayollar; kam ta’minlangan, yolg‘iz yashaydigan nogiron xotin-qizlar; kam ta’minlangan, turmushdan ajrashgan, farzandlarini yolg‘iz tarbiyalaydigan ayollar; kam ta’minlangan, uy-joylari ta’mirga muhtoj, yoki uy-joysiz ayollar; kam ta’minlangan ishsiz ayollar; migratsiyaning salbiy oqibatlari natijasida og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ayollar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan xotin-qizlar; tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan, oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar.

Yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy sharoitlarda yashayotgan, shu jumladan, nogiron ayollar, kam taminlangan, boquvchisini yo‘qotgan, farzandini yolg‘iz tarbiyalayotgan onalarning yashash sharoitlarini yaxshilashning aniq mexanizmi yaratildi. Bugungi kunda “aholining barcha toifalari bilan doimiy muloqotda bo‘lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o‘rnatish, balki ularni ta’minlashdan iborat” [9; B.14]. Ayni paytda yurtimizdagi har bir mahallada fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan oilalarning ahvoli o‘rganilib, ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, yordamga muhtoj har bir oila fuqarolar yig‘inida alohida ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritalari” orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Kambag‘allikni qisqartirishda aholini ijtimoiy himoya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari mazkur muammoning mahalliy, milliy va hududiy jihatlariga alohida e’tibor qaratishning o‘ta dolzarbligi uni davlatimizning ustuvor siyosat darajasiga ko‘tarilgani bilan izohlanadi. Fuqarolar, xususan, xotin-qizlar muammolarining yechimlari bo‘yicha davlat siyosatining faol namoyon bo‘lish jabhalari quyidagilardir: ayollarning jamiyatda munosib hayot va turmush tarziga ega qilish; xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faolligini oshirish; xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish; og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni himoya qilish; xotin-qizlar bandligini ta’minlash; xotin-qizlar

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

jinoyatchiligining oldini olish; gender tengligini ta’minlash; oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash; onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida mamlakatimiz butunlay yangi bosqichga qadam qo‘yganligi.

Yangi O‘zbekiston muhitida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish harakatining mohiyatan yangi bosqichga ko‘tarilganligi, ushbu masalaga innovatsion yondashuvni qo‘llash bugungi hayotimizning ijtimoiy zarurati, deyish mumkin. Chunki, jamiyatning progressiv taraqqiyoti yangilanish va islohotlarsiz, xususan inovatsion yondashuvlarsiz amalga oshmaydi. Ushbu holatni jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyati, deya izohlash mumkin.

Agar jamiyatda yuz berayotgan innovatsion jarayonlarni yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, jadal taraqqiyot maqsadlarini ichki va tashqi imkoniyatlarni uyg‘un tarzda ishga solish xisobiga amalga oshishi mumkinligining guvohi bo‘lamiz. Bizning mamlakatimizda ushbu jarayon, xalqimizning milliy mentalitet xususiyatlarini ham alohida e‘tiborga olgan holda, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini qo‘llash xisobiga amalga oshirilmogda. Bu esa, O‘zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuvining kuchayishiga, xalkaro miqyosda obro‘-e‘tiborining oshib borishiga imkoniyat yaratmogda.

Davlat tuzilmalarining xotin-qizlar hayotini yaxshilash va innovatsion isloh etish borasidagi faoliyati quyidagilardan iborat: a) ayollarning munosib hayotini ta’minlash borasidagi innovatsion jarayonlarning strategiyasi, o‘rta va yaqin muddatlardagi rejalarini yaratish, umumxalq muhokamasidan o‘tkazish va taqdim etilgan taklif va tavsiyalar asosida dasturlar ishlab chiqish; b) xotin-qizlar masalasiga innovatsion yondashuvning davlat va jamiyatning barcha soxalari bilan uyg‘un tarzda kechishini muvofiqlashtirish; v) innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish kuchi va salohiyatiga ega bo‘lgan lider shaxslar, hududlardagi obro‘-e‘tiborli insonlar, kuchli mutaxassislar, bir so‘z bilan aytganda, o‘zgarishlar suyektlarining faoliyatini rag‘batlantirish va ularni maqsadli yo‘naltirish; g) xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini jamiyat tarakkiyotining globallashuv, integratsiya, axborotlashuv, shu bilan birga innovatsiya kontekstida amalga oshirishga mas‘ul bo‘lish; d) aholining, xususan, xotin-qizlarning dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, bandligini ta’minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, tadbirkorlik harakatini rag‘batlantirish.

Kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy muhtoj oilalardan chiqqan xotin-qizlar uchun ajratiladigan grantlar xotin-qizlarga imtiyoz beruvchi yagona hujjat mahallalardan beriladigan tavsiyanomalar bo‘ladi. Bu tavsiyanomalar mahalla fuqarolari yig‘inidan olingandan so‘ng xotin-qizlar u asosida tanlovda ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladilar. To‘rt foizlik qo‘shimcha grant asosida qabul qilinuvchi xotin-qizlar toifasiga mahalla tomonidan kam ta’minlangan deb topilgan oilalar farzandi, nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar, otasi yoki onasidan yetim qolgan shaxslar kabi 6 ta yo‘nalishdagi fuqarolar kiritilgan.

Davlat rahbarining 2020-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham grant asosida o‘qitishda qizlar uchun alohida qo‘shimcha imtiyozlar yaratish va mutasaddi tashkilotlar oldiga bu borada nomzodlar tayyorlash tizimini yaratish vazifasi qo‘yildi. “Qizlarimiz uchun alohida grantlar ham ajratiladi. Xotin-qizlar qo‘mitasi ushbu grantlar asosida o‘qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlarini ishlab chiqishi kerak.”[10;] Mezonlarni ishlab chiqishda Murojaatnomada aytilgan quyidagi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

2019-yil statistik ma’lumotlariga ko‘ra, oliy ta’lim sohasida ham xotin-qizlar soni oshgan va talabalarning 40% xotin-qizlar bo‘lgan, bu 2011-yildagi ko‘rsatkichdan 36% ko‘p demakdir. Xotin-qizlarning savodxonlik darajasi esa 99,98%ni, ya’ni dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan birini tashkil etadi. Shunga qaramay, ma’lumotlarga ko‘ra ayni vaqtda o‘rta ta’lim olgan xotin-qizlarning faqat 35% ishlaydi, oliy ma’lumotli xotin-qizlarning esa 68% ish bilan ta’minlangan.

Ma’lumki, oliy ta’lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishi ayollar orasida ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishda muhim omil va kambag‘allikni qisqartirishga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi asos hisobalandi. Shuningdek biz siyosat va ijro hokimiyati boshqaruvida ham ayollar soni va nufuzini oshirishga chaqirishdan to‘xtamasligimiz kerak, chunki xotin-qizlar ma’lumoti va intellektual salohiyatining yuqori bo‘lishi pirovard natijada umummilliy yuksalish, yangi sivilizatsion jarayonlarning boshlanishiga kuchli turtki berishi insoniyat tarixiy tajribasidan ma’lumdir.

Intellektual omilning kuchaytirilishi mamlakatimizda xotin-qizlarning o‘z-o‘zini muayyan kasb, hunar va ijodiy salohiyat sohibi sifatida baholash ko‘rsatkichlariga ham ta’sir etishi shubhasizdir. Shu boisdan ham intellektual omilni kuchaytirish orqali xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash yangi O‘zbekistonda mazkur masalaga innovatsion yondashuvning uzviy jihatidir. O‘z-o‘zini kasbiy, ijodiy salohiyat nuqtayi nazaridan baholash fenomeni uzluksiz yuksalib borishini tizimli yo‘lga qo‘yish uchun

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

qizlarning chuqur bilim egasi bo‘lishlari, bugungi bozor talablariga mos bo‘lgan professional faoliyat sohasini tanlash holatini tahlil qilish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, ayollarning, ayniqsa yosh qizlarning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ular qiziqishining turli yo‘nalishlari bo‘yicha assotsiatsiyalar tashkil etish yuzasidan aniq takliflarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Qizlarning kasbiy va intellektual ta‘limini qo‘llab-quvvatlash xotin-qizlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga monelik qilishning oldini oladi, chunki o‘qimishli, oliy ma‘lumotli ayol oilada ham, ishda ham, jamiyat hayotida ham hamma narsaga ilm-ma‘rifat bilan, ongli va faol yondashadi va munosib ishtirok etadi.

Xalqimizning “Bir o‘g‘ilni yaxshi tarbiyalasangiz, bir insonni, bir qizni yaxshi tarbiyalasangiz, bir millatni yaxshi tarbiyalagan bo‘lasiz”, degan hayotiy hikmati bejiz aytilmagan. Farzandlarimizni sog‘lom va barkamol, Vatanga sodiq insonlar etib voyaga yetkazishning asosiy sharti, eng avvalo xotin-qizlar uchun ilm-fan va kasb-hunar yo‘llarini keng ochib berilishidir. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta‘limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi.

Ta‘kidlash joizki, ilgari mahalla tizimidagi faoliyat tartiblari oilaning qanday holatda ekanligi yoki xotin-qizlarning qaysi toifalari vakillari ko‘proq ehtiyojmand ekanligini aniqlashga ojiz edi. Ishlab chiqilgan ehtiyojmand oilalarni aniqlash mezonlari esa eng oddiy hayotiy talablarga javob bera olmas edi. Hozirgi kunda Davlat dasturi asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy himoyalash Konsepsiyasi loyihasida quyidagi masalarga alohida urg‘u berilayotganligi ham mamlakatimizda ijtimoiy himoyalash harakatiga innovatsion yondashuv ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi:

- ijtimoiy nafaqa to‘lashning mukammal tizimi joriy etilishi, jumladan, kam ta‘minlangan oilalarga ko‘mak ko‘rsatish qamrovi kengaytirilishi;

- kam ta‘minlangan va daromadi past aholi qatlamini aniqlash mezonlarining belgilanishi;

- nafaqa tayinlashdagi amalda eskirgan qoida va tartibotlarning isloh etilishi va uni belgilashda ochiq va adolatli tizimning yaratilishi;

- uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga bozor tamoyillari asosida ajratilgan ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badal va (yoki) foizlarning bir qismini qoplash nuqtayi nazaridan Davlat byudjeti hisobidan subsidiyalar to‘lash tizimining takomillashtirilishi;

- ijtimoiy nafaqa bo‘yicha bitta idoraga murojaat qilinganida, o‘sha idoraning o‘zi tomonidan bir kunda hamma hujjatlarni tayyorlaydigan tizimning yaratilishi;

- o‘zgarlar parvarishiga muhtoj yakka-yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga “Muruvvat” va “Saxovat” uylarida statsionar sharoitda tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimining tubdan takomillashtirilishi;

- ajratilayotgan ijtimoiy to‘lovlar miqdorining bugungi kun talablari asosida qayta ko‘rib chiqilishi;

- fuqarolarga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan va turli vazirlik, idoralar orasida bo‘linib ketgan ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy xizmatlarning bir-biriga muvofiqlashtirilishi;

- “Mehribonlik uylari”da tarbiyalangan yoshlar, xususan qizlarning ijtimoiy moslashuvi, ayniqsa ularni ish, uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilishi nazarda tutilgani.

Ma‘lumki, har qanday o‘zgarish va islohotlar davlat va jamiyat hayotidagi real holatni ro‘yi rost ko‘rsatish, barcha sohalarida rostlik va bor haqiqatni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga o‘tilgan va shunga erishilgan hollardagina mavjud holatni ijobiy tomonga o‘zgartirish va uzoq kutilgan natijalarga erishish jarayoni amal qila boshlaydi. Dunyoda tajribasidan ma‘lumki, barcha ulug‘ islohotlar dastavval davlat va jamiyat boshqaruvida to‘g‘rilik tamoyili real kuchga ega aylangandagina inqilobiy o‘zgarishlarni qo‘lga kiritish boshlanadi.

Haqiqatni ro‘yi rost tan olish jarayonining uzviy davomi sifatida O‘zbekiston tarixida birinchi marta mamlakatimiz aholisining 4.5–5 mln. nafari kambag‘al ekanligi e‘tirof etilib, birinchi navbatda ishsizlikni kamaytirish, avvalo, aholini zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish, ularning iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda, ayniqsa ayollarimizda tadbirkorlikka ishtiyoqni uyg‘otish kambag‘allikni qisqartirishning zaruriy yo‘llari sifatida ko‘rsatib berildi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida innovatsion jarayonlarning tezlashib borayotganligining sabablaridan yana biri, dunyodagi global o‘zgarishlar – internet tarmog‘i, yagona nktisodiy va axborot makonining shakllanib borayotganligidir. Jamiyat xayotining barcha sohalarida ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, ularni qo‘llash va yaratishga bo‘lgan intilish, bir tomondan, globallashtirishning natijasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, barqaror taraqqiyot jarayonida vujudga keladigan takomillashuv sari intilishning bir ko‘rinishidir. Hayotimizni farovonlashtirish borasidagi turli tizimlarning, xususan, aholini

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion modelni yaratish harakati ham mavjud holatni tubdan pozitivlashtirishga bo‘lgan intilishning namunasidir.

Kambag‘allikni qisqartirish masalasi inson kapitali bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mamlakatimizda bu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida hayotga joriy etilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishdajamiyatda ayollarning nufuzini oshirish, ularning davlat qurilishida faol va muntazam ishtirokini taminlash, oilani mustahkamlash siyosiy, ma‘naviy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Xotin-qizlar bilan ishlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va tobora barqarorlashib bormoqda. Ayollar ijtimoiy mavqeini muntazamlilik asosida mustahkamlash siyosati jahon amaliyotida kamdan-kam hollarda kuzatiladi.

Jamiyat rivojida muhim o‘rin egallovchi masalaga har qanday innovatsion yondashuv ma‘lum qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Modernizatsiya jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga innovatsiyalarning kirib kelishi ularning o‘zi ham qadriyat sifatida jamiyat ijtimoiy ongidan o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi va ular qadriyatlar tizimining yangi elementlari safidan o‘rin egallaydi. Mamlakat taraqqiyotidagi ushbu jarayon tizimning innovatsiya kontekstida yangilanishi, yoki uni innovatsion yondashuv asosida mavjud tizimni yangilash xisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud tizimga innovatsion yondashuvni shakllantirish jamiyatda asrlar davomida shakllanib kelgan tarixiy-milliy qadriyatlar, madaniy va ilg‘or an‘analardan voz kechishni nazarda tutmaydi, aksincha, jamiyat rivojiga xizmat qilayotgan qadriyatlar tizimini yangi innovatsion qadriyatlar bilan boyitish, bu ikkisini uyg‘unlashtirishga erishish, ularning kishilar dunyokarashi tizimining tarkibiy qismiga aylanib borishi uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, og‘ir turmush sharoitida yashayotgan aholining salomatlik holatlarini yaxshilash maqsadida statsionarlarda davolanishga, sihatgohlarga va shahar hududidagi klinikalarda bepul davolanish kurslarini olish uchun orderlar topshirilmoqda. Aholi bandligini ta‘minlash, oilaviy va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, hunar o‘rgatish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash. Ushbu vazifa har yili hukumat tomonidan qabul qilingan Kompleks chora-tadbirlar dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Qolaversa, Shavkat Mirziyoyevning “... ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha siyosat kelgusida ham izchil davom ettiriladi. Xususan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha besh yillik strategiya ishlab chiqiladi. Ushbu institutlarga ijtimoiy buyurtma berish tizimi raqamlashtirilib, moliyalashtirish hajmi 2 karra oshiriladi”[11;]- deya takidlagan fikrlari buning yorqin isbotidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations): Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib, quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

Birinchidan, “ijtimoiy himoya” tushunchasi umumgumanitar hodisa va yaxlit ijtimoiy harakatning ifodasi sifatida uzoq asrlik shakllanish tarixiga egadir. Ijtimoiy himoya tushunchasining evolyutsiyasi insoniyat tomonidan gumanitar tamoyillarni hayot tarzi sifatida qabul qilish holati bilan bog‘liq kechgan determinant jarayondir.

Ikkinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash harakati odamlarning faqat moddiy, iqtisodiy ta‘minotini yo‘lga qo‘yish bilan cheklanmaydi va bunday maqsadni ijtimoiy himoya jarayonida bosh tamoyil deb hisoblamaymiz. Ijtimoiy himoyaning bosh tamoyili insonga mehr ko‘rsatish, uning salohiyatini ruyobga chiqarish orqali o‘z baxtini o‘zi topishiga ko‘maklashish, sidqidil va samimiy hamkorlik qilish hamda uning davlatdan, jamiyatdan va o‘z-o‘zidan rozi bo‘lishiga erishishdan iboratdir. Mazkur sohaga davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ajratiladigan investitsiyalar ijtimoiy himoyaning yuqori darajada o‘shishiga olib keladi

Uchinchidan, aksariyat tadqiqotchilar “kuchli ijtimoiy himoya” so‘zlari negizida ehtiyojmand aholi qatlamlari vakillariga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ko‘mak tushunilib, mazkur ko‘mak asosan davlat tomonidan qancha ko‘p va uzluksiz tarzda aholining ijtimoiy himoyasiga moddiy, tibbiy, madaniy e‘tibor kuchaytirilsa, barcha aholi qatlamlari vakillarining turmush darajasining oshishi, mamlakatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitning barqarorlashishi kafolatlanadi, deb talqin etib kelingan.

To‘rtinchidan, ijtimoiy himoya tushunchasi so‘nggi yillarda mohiyatan takomillashib, unda maqsadlilik va manzillilik, shaxs salohiyatini aniqlash va ro‘yobga chiqarish, insonni o‘z qiziqishi, maqsadlari, manfaati va imkoniyati doirasida ijtimoiylashtirish, moddiy ko‘mak olish tizimini subsidiar texnologiyalardan ijtimoiy texnologiyalarni qo‘llashga o‘tkazish siyosati amalga oshirilmoqda. Bunday mazmunan va tarkiban yangi ijtimoiy siyosatning uzluksiz rivojlanib borishi natijasida mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi ta‘minlanmoqda va ko‘plab sohalarda ijobiy natijalar qo‘lga kiritilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, davlatimiz rivojlanishning yangi bosqichida hayotda o‘zining munosib o‘rni va mavqeini yuksaltirayotgan ayollar mamlakat farovonligining kafolati hisoblanadi. Shu bois, ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

faolligini oshirish va muammolarini o‘z vaqtida hal qilish hamda mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, barqaror yuksalishimizning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. Tom. 1-24. – Toshkent: O‘zbekiston. 1996-2015.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom.1. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017. – 592 b; Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Tom. 2. –Toshkent: O‘zbekiston. 2018. – 508 b; Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Tom. 3.- Toshkent: O‘zbekiston. 2019. – 400 b.; Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 452 b.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. – 454 b.
3. Vaxabov A.V., Bahtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. –T.: “Universitet” nashriyoti, 2020. – 154 b.; Umurzakov B.X. va b. Mehnat resurslari shakllanishi va taqsimlanishining hududiy usullari. Monografiya. –T.: “Lesson Press”, 2017-y. -184 b.; Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari. // Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008. - 25 b.
4. Хусанов Б.Ш. Проблемы регулирования финансового механизма социального обеспечения населения // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук: — Т.: 2011. - 25 с.; Ғойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. Монография. –Тошкент: «Фан»нашриёти, 2005 – 69 б.; Абдурахмонов Х.Х, АрабовН.У. Холмухамедов М.М. Аҳоли даромадлари ва турмуш сифати. Монография. – Т: “Тафаккур бўстони”. 2014.– Б. 127-139.
5. Ромашев О.В. Социальная защита трудящихся: проблемы и пути решения. //Социальные исследования. –Москва: 2001. №1, -С. 110.
6. Tuxliyev N., Haqberdiyev K., Ernazarov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari –Toshkent: 2006.-B.260.
7. Sodiqova Sh. Qariyalari qadr topgan yurt.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.- B. 175.
8. Abduraxmonov K. X, Toxirova X.T., Sharipov B.M. Aholini ijtimoiy muxofaza qilish. – Toshkent: TDIU, 2005.–B.9.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017.–B.14.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. / <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
11. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.